

**AYOL JASORATI VA O'LIM: UNSINNING RUHIY SINISHI VA MA'NAViy
G'ALABASI****Shodmonova Dildora Xazaratkul qizi,***Abdulla Oripov nomli ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*
shodmonovadildora15@gmail.com**Ilmiy rahbar: Nafas Shodmonov,***Qarshi shahridagi Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professori,
filologiya fanlari doktori***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925648>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qahhor ijodida Unsin obrazi orqali muayyan tarixiy davr ayollarining umumlashtirilgan qiyofasi, ularning ichki kechinmalari, ayol jasorati hamda o'lim hodisasining badiiy-falsafiy mazmuni tahlil etiladi. Tadqiqot davomida Unsin shaxsida kuzatiladigan ruhiy inqiroz ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy tazyiq va murakkab yashash sharoitlari bilan bevosita bog'liqlikda yoritiladi. Qahramonning ichki iztiroblari esa uning ma'naviy yetilishi va o'lim bilan yuzmayuz kelgan palladagi axloqiy ustunligini namoyon etuvchi muhim badiiy omil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, go'riston, shamol, tobut va maymun, qumg'on singari ramziy detallar orqali o'lim motivining estetik va semantik funksiyasi ochib berilib, o'zbek adabiyotida ayol obrazi bilan o'lim motivi o'rtasidagi ichki uyg'unlik ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ayol jasorati, o'lim motivi, Unsin obrazi, ruhiy inqiroz, ma'naviy ustunlik, ramziy detallar, psixologik tahlil, badiiy tafakkur.

Аннотация. В статье творчество Абдуллы Каххара рассматривается через образ Unsin как обобщённый тип женщины определённой исторической эпохи, отражающий её внутренние переживания, духовную стойкость и художественно-философское осмысление смерти. Психологический кризис героини анализируется в контексте социальной несправедливости, нравственного давления и сложных условий существования. Внутренние страдания Unsin интерпретируются как путь к её духовному возрастанию и нравственному превосходству в момент соприкосновения со смертью. Особое внимание уделяется символическим деталям — кладбищу, ветру, гробу и образу обезьяны, через которые раскрывается эстетическая и смысловая функция мотива смерти. В результате обосновывается взаимосвязь образа женщины и темы смерти в узбекской художественной прозе.

Ключевые слова: Женская стойкость, мотив смерти, образ Unsin, психологический кризис, нравственное превосходство, символика, художественный анализ.

Abstract. This article examines the works of Abdulla Qahhor through the character of Unsin as a generalized representation of women of a specific historical period, focusing on their inner experiences, moral resilience, and the artistic and philosophical interpretation of death. The psychological crisis experienced by the heroine is analyzed in relation to social injustice, moral pressure, and harsh living conditions. Unsin's inner suffering is interpreted as a process of spiritual maturation that leads to moral superiority at the moment of confronting death. Particular attention is given to symbolic elements such as the cemetery, wind, coffin, and the image of a monkey, through which the aesthetic and semantic functions of the death motif are revealed. The study ultimately substantiates the intrinsic connection between the female image and the theme of death in Uzbek prose.

Keywords: Female resilience, death motif, Unsin character, psychological crisis, moral superiority, symbolism, literary analysis.

Kirish. Adabiyot inson ruhiyati, ijtimoiy muhit va tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi sifatida jamiyat taraqqiyoti va inson tafakkurini anglashda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek nasrida ayol obrazi orqali ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy zulm va hayotning og‘ir sinovlari badiiy talqin etilib, insoniy qadriyatlar teran falsafiy mazmun bilan yoritilgan. Bu jarayonda o‘lim hodisasi qahramonning ruhiy holati va ma’naviy qiyofasini ochib beruvchi muhim badiiy motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhor ana shunday yozuvchilardan biri bo‘lib, u o‘z asarlarida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish, jamiyatdagi illatlarni fosh etish va o‘quvchini o‘ylashga undash bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi voqealarni o‘qish davomida go‘yo ishtirokchisiga aylanasiz. Qahramonlar yig‘lasa, iztirob chekasiz, xursand bo‘lsa, quvonasiz. Yozuvchi asarlarining yana bir xususiyati shundaki, undagi qahramonlarning ko‘pchiligi adibning atrofida yashagan real qahramonlardir. U ana shunday oddiy insonlarni o‘z asarlarida mahorat bilan tasvirlab, adabiy qahramon darajasiga olib chiqa olgan serqirra ijodkordir. Demak, A.Qahhor yozganidek, «Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib xulosa chiqarmaydi, uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko‘rsatib, kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug‘diradi». «Yozuvchi o‘zi his qilmagan narsa to‘g‘risida yozsa, buni o‘qigan o‘quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart...».

Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligida so‘zga tejamkor, mazmunga boy va psixologik chuqur asarlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchi yaratgan ayol obrazlari jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, axloqiy qarama-qarshiliklar va insoniy fojealarni yuksak badiiy darajada ifodalashi bilan ajralib turadi. Unsin obrazi ham ana shunday qahramonlardan biri bo‘lib, u muayyan tarixiy davr ayollarining umumlashtirilgan qiyofasini ifodalaydi. Ushbu obraz orqali yozuvchi ayolning ichki kechinmalari, ruhiy sinishi va hayot sinovlari qarshisidagi jasoratini ochib beradi. Qahramon boshidan kechirgan iztiroblar uning ma’naviy yemirilishiga emas, aksincha, ichki kuchini safarbar etib, axloqiy ustunlikka erishishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan o‘lim hodisasi Unsin obrazida fojeaviy yakun emas, balki ma’naviy g‘alabaning ramziy ifodasiga aylanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Abdulla Qahhor ijodida Unsin obrazi orqali ayol jasorati va o‘lim motivining badiiy-falsafiy talqinini ochib berish, qahramon ruhiyati va ramziy detallarning estetik funksiyasini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Qahhor ijodini o‘rganish, tadqiq qilish, ommalashtirish borasida ko‘pgina ilmiy, pedagogik ishlar amalga oshirilgan va bugungi kunda ham davom etmoqda. Jumladan, I.V.Borolinaning “Abdulla Qahhor” (1957), H.Abdusamatovning “Abdulla Qahhor” (1960), M.Sultonovning “Abdulla Qahhor uslubi” (1967), M. Qo‘shchonov va U. Normatovning “Mahorat sirlari” (1968) nomli monografiyalarini, shuningdek, I. Sultonov, H. Yoqubov, P. Qodirov, O. Sharafiddinov,

Sh. Yusupov, X. Doniyorov kabi olimlarning A.Qahhor ijodiga oid ilmiy tadqiqotlarning yaratilishi adibning ifoda tilini yanada osonlashtiradi. Ular tomonidan o'zbek adabiyotshunosligida XX asr nasri, xususan, hikoyachilik janrining shakllanishi va taraqqiyoti masalasi keng tadqiq etilgan. Ushbu davr adabiy jarayonida inson shaxsiyati, uning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit bilan munosabati markaziy muammoga aylangan. Ayniqsa, ayol obrazi orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ma'naviy bosim va hayotiy fojialarning badiiy talqini adabiyotshunoslikda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazi, ruhiy sinish va o'lim motivi masalalari alohida ilmiy e'tibor talab qiladigan muhim badiiy hodisadir. "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" kitobida ilgari surilgan quyidagi nazariy fikrlar ham ushbu maqolada Unsin obrazini tahlil qilishda tayanch ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi va mavzuning dolzarbligini yanada mustahkamlaydi: "...Hikoya o'zbeklar o'rtasida ancha keng tarqalgan oddiy bir latifa asosida qurilgan. Biroq yozuvchi iste'dodining kuchi bilan bu latifaga favqulodda hayotiy mazmun baxsh etadi. "Dahshat"ning o'tmish haqidagi boshqa hikoyalardan farqi shundaki, adib adolatsizlik va tengsizlik qurbonlarini, ojiz, notavon, mute' odamlarni emas, o'z huquqi, erki uchun jur'atsizgina bo'lsa-da kurash yo'liga kirgan, bu yo'lda har qanday dovyurak odamni ham dahshatga soluvchi qabriston vahimasidan cho'chimagan, nihoyat, bu yo'lda qurbon bo'lgan Unsinni qahramon qilib olgan".

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat tahlil tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda Abdulla Qahhor ijodidagi Unsin obrazi markaziy tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnni chuqur anglash va talqin etishga yo'naltirilgan adabiyotshunoslikning zamonaviy yondashuvlari qo'llanildi. Metodologik asos sifatida adabiy-tahliliy, psixologik va badiiy-falsafiy yondashuvlar uyg'unligi tanlandi.

Asosiy metodlardan biri **badiiy tahlil** metodi bo'lib, u orqali Unsin obrazining badiiy qurilishi, voqealar rivoji va obrazlar tizimidagi o'rni aniqlanadi. Ushbu metod yordamida qahramon ruhiy holatining bosqichma-bosqich o'zgarishi, ichki kechinmalar va ruhiy sinish jarayonlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, **psixologik tahlil metodi** asosida qahramonning ichki monologi, hissiy kechinmalari va ruhiy ziddiyatlari izchil o'rganilib, ularning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi yoritiladi. Ayolning qo'rquv, iztirob va jasorat o'rtasidagi ziddiyatlari, o'linga munosabati va ruhiy sinishi psixologik realizm asosida izohlandi. Bu yondashuv hikoyadagi o'lim motivining nafaqat badiiy, balki ruhiy-falsafiy talqinini ochib berishga yordam berdi.

Tadqiqotda **ramziy tahlil** metodi ham muhim o'rin tutadi. Go'riston, shamol, tobut va maymun, qumg'on kabi ramziy detallar o'lim motivining estetik va semantik qatlamlarini ochib beruvchi badiiy unsurlar sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv orqali ramzlarning matndagi funksional vazifasi, obrazlar ruhiyati bilan aloqadorligi hamda badiiy umumlashtirishdagi o'rni aniqlanadi.

Shuningdek, **tarixiy-adabiy yondashuv** asosida Unsin obrazi yaratilgan davr ijtimoiy-madaniy muhit kontekstida ko‘rib chiqiladi. Bu metod yordamida ayol obrazining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan ijtimoiy omillar, davr muammolari va adabiy an‘analar aniqlanadi. Zarur o‘rinlarda **qiyosiy-tahliliy metod** qo‘llanilib, Abdulla Qahhor ijodidagi ayol obrazlari boshqa adiblar asarlaridagi o‘xshash obrazlar bilan qiyoslanadi.

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, tahlil va xulosa chiqarish usullari qo‘llanilib, olingan natijalar ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui maqola mavzusini tizimli va chuqur yoritishga, shuningdek, o‘lim motivi va ayol jasorati talqinini kompleks ilmiy tahlil qilishga xizmat qiladi

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qahhor ijodida Unsin obrazi muayyan tarixiy davr ayollarining umumlashtirilgan badiiy qiyofasini ifodalaydi. Qahramon hayoti va ruhiy holati orqali ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, ularning ichki kechinmalari hamda hayot sinovlari qarshisidagi ruhiy bardoshlilik badiiy jihatdan yoritilgan. Unsin timsolida ayol obrazi passiv fojea qurboni sifatida emas, balki ichki qarshilik va ma‘naviy kuch egasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil jarayonida Unsinning ruhiy sinishi bosqichma-bosqich kechishi aniqlandi. Qahramon boshidan kechirgan ijtimoiy adolatsizliklar, turli tazyiqlar va og‘ir turmush sharoitlari uning ruhiy holatida chuqur iz qoldiradi. Biroq mazkur ruhiy inqiroz qahramonning ichki yemirilishiga olib kelmaydi, aksincha, uning ongida hayot va o‘lim masalasini yangicha idrok etishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan Unsinning ruhiy sinishi badiiy asarda fojeaviy yakun emas, balki ma‘naviy yetilish jarayonining muhim bosqichi sifatida talqin etiladi. Unsin uchun o‘lim qo‘rquv manbai bo‘lishdan chiqib, ichki ozodlik va ma‘naviy ustunlik ramziga aylanadi. Bu holat yozuvchining o‘limni inson qadr-qimmatini yuksaltiruvchi badiiy kategoriya sifatida talqin etganini ko‘rsatadi. Qolaversa,, hikoyada ayol jasorati nafaqat individual fojea, balki jamiyatdagi umumiy zulmga qarshi kurash ramzi sifatida talqin qilinadi. Qahhor Unsinning ichki kechinmalari, qo‘rquv va iztiroblari o‘quvchiga bevosita ta‘sir qilish maqsadida psixologik realizmdan mahorat bilan foydalangan, ya‘ni o‘quvchini Unsinning ruhiy dunyosiga olib kiradi va uning fojeasini chuqurroq his qilishga majbur qiladi. Bu psixologik chuqurlik hikoyaning badiiy qiymatini oshiradi va ayol obrazini yanada jonli qiladi.

Asarda qo‘llangan ramziy detallar tahlili natijasida ularning o‘lim motivini chuqurlashtirishdagi o‘rni aniqlandi. Go‘riston makoni qahramonning ichki yolg‘izligini va hayotning foniyligini ifodalasa, shamol obrazida beqarorlik va taqdirning shafqatsizligi ramziy ma‘no kasb etadi. Tobut detali o‘limning muqarrarligini ifodalash bilan birga, Unsinning ruhiy qaror topish jarayonini kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Maymun obrazi esa jamiyatdagi ma‘naviy tubanlik, insoniylikdan yiroqlik va ijtimoiy tanazzulni ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Qumg‘onni qaynatish orqali u qo‘rqoqlikda ayblagan barcha erkaklarni ma‘naviy mag‘lub etdi. Hikoyadagi haqiqiy

dahshat qabriston emas, balki ayol kishini qabristonga qumg'on qaynatishga yuboradigan ijtimoiy muhit ekanligini ko'rsatdi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor ayol obrazini yaratishda an'anaviy fojeaviy talqindan chekinib, uni ma'naviy qarshilik va ruhiy g'alaba timsoli darajasiga ko'taradi. Unsin obrazi orqali ayol jasorati nafaqat jismoniy bardoshlilikda, balki ichki iroda va axloqiy ustunlikda namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Uning o'limi Unsinlarni xotin emas, ma'lum bir ma'noda, buyum sifatida ko'rgan Dodxo kabi kimsalarning yuziga urilgan tarsakisi edi. U o'limi bilan o'zining mustaqil shaxs ekanini tasdiqladi. Bu esa yozuvchining ayol obraziga nisbatan yuksak badiiy va insonparvarlik pozitsiyasini ko'rsatadi. Shuningdek, Unsinning fojeasi jamiyatdagi adolatsizlik va tengsizlikni ham fosh etadi. Hikoya o'quvchini ijtimoiy ongini uyg'otishga, zulm va adolatsizlikka qarshi fikrlashga undaydi. Bu jihat hikoyani nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega asar darajasiga ko'taradi.

Unsin obrazi boshqa o'zbek adabiyotidagi ayol obrazlari bilan qiyoslanganda, uning o'ziga xosligi yaqqol ko'rinadi. U oddiy, sodda, ammo ichki e'tiqodi mustahkam ayol edi, xurofot va qo'rquv hukmron muhitda yashaydi. Garchi fojiaviy taqdir egasi bo'lsa-da, ma'naviy poklikning haqiqiy timsoli hisoblanadi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi obrazi esa go'zal, latofatli, orzu-havaslariga boy qiz. U eski urf-odatlar, majburiy nikoh va ijtimoiy tengsizlik qurboni bo'ldi. Asarda ko'proq tuyg'ular va romantik kechinmalar bilan yashaydi. Unsin qo'rquv ichida yashaydi. O'z taqdirini ichki chidam bilan qabul qiladi. Ammo ruhiy iztiroblar fojiaviy kuch kasb etadi, qo'rquv va dahshatli vaziyatda ham ichki bardosh ko'rsatadi, mutlaq beg'uborlik va sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi, uning obrazi o'quvchida kuchli larza uyg'otadi, fojeasi ramziy ma'no kasb etadi. Zebi esa nozik tabiatli, ta'sirchan, voqealarga ko'proq hissiyot bilan munosabat bildiradigan, irodasi nisbatan sustroq, ko'proq sharoit ta'sirida qoladigan ayol edi. U ko'proq ruhiy tushkunlikka beriladi, shaxsiy hayot doirasida qoladi. Unsin qo'rquv muhitida yashasa-da, ruhiy jihatdan sinmaydi. Bu jihat uni Zebiga nisbatan kuchliroq obrazga aylantiradi. Zebi — orzu va armonlar bilan yashagan nozik qalbli qiz timsoli. Unsin esa fojiaviy vaziyatda ham ichki pokligi va matonatini yo'qotmagan ayol obrazidir. Shu bois, ruhiy bardosh, ma'naviy poklik va fojeaviy ta'sir kuchi jihatidan Unsin obrazi Zebidan ustun turadi. Bu ikki qahramon hayotining birlashtirib turadigan tomoni shuki, zamonadagi ko'pxotinlilik, ayol sha'ning qadsizlanishi, erkak hokimiyatining mutlaq hukmi edi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil natijalari o'zbek adabiyotida ayol obrazi va o'lim motivi o'zaro uzviy bog'liq holda talqin etilishini tasdiqlaydi. Unsin timsolida o'lim hodisasi ayolning ma'naviy g'alabasini ifodalovchi badiiy-estetik kategoriya sifatida namoyon bo'lib, bu holat mazkur mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini yana bir bor asoslaydi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot Abdulla Qahhor ijodida Unsin obrazi misolida ayol jasorati va o'lim motivining badiiy-falsafiy talqinini ochib berishga qaratildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Unsin obrazi muayyan tarixiy davr ayollarining umumlashtirilgan badiiy qiyofasini ifodalab, ularning ijtimoiy tengsizlik, ruhiy bosim, zulm va og'ir hayot sharoitlarida kechgan murakkab ruhiy holatini teran aks ettiradi. Qahramon boshidan kechirgan iztiroblar ayolning ojizligini emas, balki uning ichki kuchi va ma'naviy bardoshlilikini ko'rsatadi. Shu jihatdan o'lim motivi ayol jasoratining eng yuqori cho'qqisi sifatida namoyon bo'ladi. Go'riston sahnalari esa o'limni emas, balki haqiqat bilan yuzlashuvni ifodalaydi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, go'riston, shamol, tobut va maymun, qumg'on kabi ramziy detallar asarda o'lim motivi qahramon ruhiyatidagi ichki ziddiyatlarni ochib berish bilan birga, jamiyatdagi muammolarni badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi. Natijada Unsin obrazi nafaqat individual fojea, balki ijtimoiy-ma'naviy muhitning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Unsin obrazi orqali ayol jasorati, ruhiy sinish va o'lim motivining o'zaro uyg'unligi o'zbek adabiyotida muhim badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, zulm mavjud bo'lgan joyda begunohlar qurbon bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek nasrida ayol obrazi va o'lim motivi muammosini yanada chuqurroq o'rganish uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qahhor A. O'tmishdan ertaklar. Yangi asr avlodi. – Toshkent: 2019.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. N. Karimov, S. Mamajonov, U. Normatov, O. Sharafiddinov. **XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.** – Toshkent: O'qituvchi, 1999.